

“QIR USTIDAGI AYOL” ROMANINING SYUJET VA KOMPOZITSION QURILISHI

Mutalibova Muxtaram Abduraxim qizi

Farg‘ona davlat univesiteti filologiya fakulteti:

o‘zbek tili yo‘nalishi 23.85-guruh talabasi

E-mail: mutalibovamuxtaram@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0003-0498-4182>

Annotatsiya: *Ushbu maqolada “Qir ustidagi ayol” romanining syujet va kompozitsion qurilishi adabiyotshunoslik nazariyasi asosida tahlil qilinadi. Asarda voqealar rivoji, syujet turlari, konfliktlarning shakllanishi, obrazlar taqdiri bilan bog‘liq kompozitsion yechimlar o‘rganiladi. Roman syujeti inson ruhiyati, oilaviy munosabatlar, jamiyatdagi ijtimoiy tafovutlar hamda shaxsning ichki kurashlari asosida qurilganligi ko‘rsatib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *syujet, fabula, kompozitsiya, konflikt, obraz, roman, psixologik tasvir, voqealar rivoji.*

THE SUJECT AND COMPOSITION STRUCTURE OF THE ROMAN “WOMAN ON THE RIVER”

Abstract: *This article analyzes the plot and compositional structure of the novel “The Woman on the Hill” based on literary theory. The work examines the development of events, plot types, the formation of conflicts, and compositional solutions related to the fates of characters. It is shown that the plot of the novel is based on the human psyche, family relations, social differences in society, and the internal struggles of the individual.*

Keywords: *plot, fable, composition, conflict, image, novel, psychological image, development of events.*





СЮЖЕТНОЕ И КОМПОЗИЦИОННОЕ СТРОЕНИЕ РОМАНА

“ЖЕНЩИНА НА КРЫШЕ”

Аннотация: В данной статье анализируется сюжетная и композиционная структура романа “Женщина на холме” на основе теории литературоведения. В произведении изучаются композиционные решения, связанные с развитием событий, типами сюжета, формированием конфликтов, судьбами образов. Показано, что сюжет романа построен на основе человеческой психики, семейных отношений, социальных различий в обществе и внутренней борьбы личности.

Ключевые слова: сюжет, фабула, композиция, конфликт, образ, роман, психологический образ, развитие событий.

Badiiy asarning ta'sir kuchini belgilovchi asosiy omillardan biri uning syujet va kompozitsion qurilishidir. Syujet orqali yozuvchi hayot hodisalarini badiiy tartibga soladi, qahramonlar xarakterini ochadi va asarning g'oyaviy mazmunini shakllantiradi. Adabiyotshunos Dilmurod Quronov badiiy asar tuzilishini tahlil qilishda syujet va kompozitsiya masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Uning qarashlariga ko'ra, syujet oddiy voqealar yig'indisi emas, balki ijodkor tomonidan ma'lum maqsad asosida tartibga solingan badiiy hodisalar tizimidir. Hotam Umurov ham syujetni obraz xakteri ochilishiga xizmat qiluvchi asosiy vositalardan biri sifatida baholaydi.

“Qir ustidagi ayol” romanida ham voqealar oddiy hayotiy jarayonlar asosida rivojlansa-da, undagi ichki ruhiy ziddiyatlar va ijtimoiy muammolar syujetning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi. Syujet badiiy asarda tasvirlangan voqealarning muayyan tartibda joylashtirilishi va rivojlanishidir. Fabula esa voqealarning hayotiy, tabiiy ketma-ketligidir. Yozuvchi fabula materiallarini tanlab, o'zgartirib, badiiy maqsadga muvofiq joylashtirishi natijasida syujet yuzaga keladi.

Adabiyotshunoslikda syujetning quyidagi asosiy qismlari ajratiladi:



1. Ekspozitsiya - qahramonlar va vaziyat bilan tanishtirish.
2. Tugun - asosiy ziddiyatning boshlanishi.
3. Voqealar rivoji - konfliktlarning kuchayishi.
4. Kulminatsiya - eng yuqori dramatik nuqta.
5. Yechim - voqealarning yakunlanishi.

“Qir ustidagi ayol” romanida ham mazkur bosqichlar izchil namoyon bo‘ladi. Roman boshida to‘y manzaralari tasvirlanadi. Tashqi tomondan quvonchli bo‘lgan bu voqea keyingi ichki ziddiyatlarning boshlanish nuqtasiga aylanadi. Robiya xolaning faol, el orasida obro‘li ayol sifatidagi qiyofasi beriladi. Shu bilan birga oilaviy muhit, qarindoshlik munosabatlari va qahramonlarning xarakter xususiyatlari ochila boshlaydi. To‘y voqeasi asarning faqat boshlanish hodisasi emas, balki keyingi konfliktlarga sabab bo‘luvchi kompozitsion tugun vazifasini bajaradi. Hamdamning Nozimaga qiziqishi, oilaviy muhitdagi kelishmovchiliklar keyingi voqealar rivojiga zamin yaratadi.

Roman syujetining asosiy tuguni Nozima obrazining ichki va tashqi ziddiyatlari bilan bog‘liq. U bir tomondan oilali ayol, ona va kelin sifatidagi vazifalarini bajaradi, ikkinchi tomondan esa o‘z istaklari, orzulari va erkinlikka bo‘lgan ehtiyoji bilan yashaydi. Nozimaning qaynonasi, eri va atrofidagi insonlar bilan munosabatlari orqali oilaviy konflikt yuzaga keladi. Uning moddiy ehtiyojlari, e‘tibor kutishi, o‘zini qadrsiz his qilishi xarakteridagi murakkabliklarni ochadi. Asarda konflikt faqat shaxslar o‘rtasidagi tortishuv emas, balki insonning o‘zi bilan kurashi sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Roman voqealari davomida Nozimaning oiladagi, ishdagi va jamiyatdagi holati parallel tarzda tasvirlanadi. Bu esa asarning ko‘p qatlamli syujet tuzilishini yuzaga keltiradi. Uy muhiti orqali oilaviy muammolar, maktabdagi voqealar orqali esa ijtimoiy munosabatlar ko‘rsatiladi. Nozimaning o‘qituvchi sifatidagi faoliyati uning jamiyatdagi o‘rnini ochib beradi. Maktabdagi voqealar orqali mansab, boylik, mavqe kabi tushunchalarning insonlar munosabatiga ta’siri ko‘rsatiladi.



“Qir ustidagi ayol” romanining syujeti ko‘proq psixologik va ijtimoiy-maishiy syujet turiga yaqin turadi. Psixologik syujetda asosiy e’tibor qahramonning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari va qarorlariga qaratiladi. Ushbu romanda ham Nozimaning o‘y-xayollari, alam va istaklari voqealar rivojining muhim omiliga aylanadi. Ijtimoiy-maishiy syujet esa oilaviy hayot, jamiyatlardagi munosabatlar, kundalik turmush muammolarini yoritadi. Roman voqealari aynan mana shu hayotiy jarayonlar asosida qurilgan.

Kompozitsiya - badiiy asardagi qismlarning o‘zaro bog‘lanishi va joylashish tartibidir. Yozuvchi kompozitsiya orqali voqealarning ta’sir kuchini oshiradi. Roman kompozitsiyasida quyidagi xususiyatlar ko‘zga tashlanadi: Birinchidan, voqealar sabab-natija munosabatida rivojlanadi. Har bir hodisa keyingi jarayonga ta’sir qiladi. Ikkinchidan, tashqi voqealar bilan qahramon ichki kechinmalari parallel beriladi. Uchinchidan, muallif ayrim voqealarni batafsil tasvirlash orqali qahramon ruhiyatini ochadi. Nozimaning oddiy hayotiy holatlari, oiladagi tortishuvlari, ishdagi muammolari bir butun kompozitsion tizimga birlashadi. Asardagi eng keskin nuqtalar qahramonning o‘z hayoti va qarashlari bilan yuzlashgan paytlarida yuz beradi. Nozimaning tashqi muhit bilan ziddiyati kuchaygan sari uning ichki dunyosidagi qarama-qarshilik ham chuqurlashadi. Kulminatsion holatlar qahramonning xatti-harakatlari, tanlovlari va munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Asar yechimi esa inson xarakteri, oilaviy mas’uliyat va hayot haqidagi xulosalarni anglashga olib keladi. Obrazlar tizimi va syujetdagi o‘rni Roman syujetida har bir obraz muayyan vazifani bajaradi.

Nozima - asarning markaziy obrazi bo‘lib, uning taqdiri atrofida asosiy voqealar rivojlanadi.

Robiya xola - hayot tajribasi, sabr va uzoqni ko‘ra bilish timsoli sifatida namoyon bo‘ladi.

Sardor obrazi orqali oilaviy munosabatlardagi erkak va ayol o‘rtasidagi tushunmovchiliklar ochiladi.

Hamdam esa syujetdagi tashqi ta’sir kuchi sifatida voqealar rivojiga turtki beradi.



Xulosa qilib aytganda, “Qir ustidagi ayol” romanining syujet va kompozitsion qurilishi hayotiy voqealar, psixologik tasvir va ijtimoiy muammolar uyg'unligiga asoslangan. Asarda syujet oddiy voqealar ketma-ketligi sifatida emas, balki inson xarakterini ochuvchi badiiy tizim sifatida shakllangan. Dilmurod Quronov va Hotam Umurovning syujet hamda kompozitsiya haqidagi nazariy qarashlari asosida tahlil qilinganda, roman syujeti psixologik va ijtimoiy-maishiy xususiyatlarga ega ekanligi ko'rinadi. Yozuvchi voqealarni mahorat bilan joylashtirib, qahramonlarning ichki dunyosini ochishga, jamiyat va inson munosabatlarini ko'rsatishga erishgan. Shu jihatdan “Qir ustidagi ayol” romani zamonaviy o'zbek nasrida inson ruhiyati va hayot ziddiyatlarini aks ettiruvchi asarlardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq nashriyoti.2018
2. Esin.A.B. Adabiy asarni tahlil qilish tamoyillariva usullari.- 4-nashr.- M.,2002
3. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. T.: “Sharq”, 2008
4. D. Quronov, Z. Mamajonov, M. Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent. “Akademnashr”. 2013.
- 5.Umurov.H. “Badiiy psixologizm va hozrigi o'zbek romanchiligi” – T.,Fan,1983.
- 6.Abdullyeva.D.S. Adabiyotshunoslikda badiiy psixologizm tushunchasi va masalaning tarixi.
7. www.ziyouz.com kutubxonasi.

